

3/2025,  
may-  
iyun  
(№ 00077)



## OZIQ-OVQAT INQIROZINI YUMSHATISHDA INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI

**Tolipova Baxtigul Farxodovna**

*Xalqoro Nordik universiteti doktoronti (DSc)*

**Email:** [b.tolipova@nordicuniversity.org](mailto:b.tolipova@nordicuniversity.org)

**ORCID:** 0000-0003-1675-6825

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol13\\_iss3/673](https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss3/673)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada global oziq-ovqat inqirozining sabablari, oqibatlar hamda uni yumshatish yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqotda urushlar, iqlim o'zgarishlari va iqtisodiy shoklar kabi asosiy omillar oziq-ovqat xavfsizligiga qanday tahdid solayotgani yoritilgan. Statistika va xalqaro hisobotlar asosida mavjud vaziyatga baho berilib, inqirozni bartaraf etish bo'yicha tizimli yondashuvlar ilgari surilgan. Jumladan, qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash, resurslardan samarali foydalanish va investitsion dasturlarni kengaytirish kabi chora-tadbirlar taklif etilgan. Maqola oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda mahalliy va xalqaro darajadagi strategik rejalashtirish zarurligini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** Oziq-ovqat inqirozi, oziq-ovqat xavfsizligi, ochlik, investitsiya, qishloq xo'jaligi, iqlim o'zgarishi, iqtisodiy shok, urushlar.

### Abstract

The study emphasizes the threat of food security from major factors such as wars, climate change, and economic shocks. Statistics and international reports are utilized to evaluate the current situation and propose systematic ways to overcome the crisis. Specific measures include supporting agriculture, utilizing efficient resources, and expanding investment programs. The article provides a justification for the necessity of strategic planning at both local and international levels to ensure food security.

**Key words:** Food crises, food security, hunger, investments, agriculture, climate change, economic shock, conflicts.

### Kirish

So'nggi yillarda global oziq-ovqat xavfsizligi masalasi insoniyat uchun eng dolzarb muammolardan biriga aylangan. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Jahon banki va Xalqaro oziq-ovqat siyosati instituti (IFPRI) tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilga kelib, dunyo bo'yicha 295 milliondan ortiq inson o'tkir ochlikdan aziyat chekmoqda. Ushbu raqam 2023-yilga nisbatan 13 million kishiga oshgani global miqyosda oziq-ovqat inqirozining keskin kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Oziq-ovqat inqirozining asosiy sabablari qatorida qurolli mojarolar, global iqlim o'zgarishi, iqtisodiy shoklar va resurslar taqchilligi alohida o'rin tutadi. Springer Nature va Web of Science kabi yetakchi ilmiy bazalarda chop etilgan tadqiqotlar ushbu omillarning o'zaro murakkab bog'liqligini ta'kidlab, ayniqsa, iqlim o'zgarishiga moslashmagan agrar

tizimlar va noturg'un siyosiy-iqtisodiy muhitlar ochlik xavfini yanada kuchaytirishini ko'rsatmoqda.

Ukraina-Rossiya mojarosi, G'azo sektori va Sudandagi ziddiyatlar, shuningdek, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi iqlimga bog'liq qurg'oqchilik va suv toshqinlari oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarish, saqlash va taqsimot tizimlarini izdan chiqarmoqda. FAOning so'nggi hisobotlarida qayd etilishicha, iqlimga ta'sir qiluvchi omillar sababli 2030-yilga borib dunyo bo'yicha oziq-ovqat ishlab chiqarish salohiyati 10–25% ga kamayishi mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hamda ushbu mahsulotlar bozori likvidligining pastligi sabab investorlar, homiyarlar va tadbirkorlarning va davlat siyosatchilari nazaridan doimiy chetda qolishi, surunkali oziq-ovqat tanqisligi, xususan, yosh bolalarning to'yib ovqatlanmasligi inqirozga yo'l ochib berdi. Barcha sarmoya va e'tibor sanoat tarmoqlarida texnologik jihatdan rivojlanish yetakchilik qilib turgan bir vaqtda, oqsab turgan oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish tizimi o'z holicha faoliyat yuritib turishga majbur bo'ldi. Endi esa, bu e'tiborsizlik badali insoniyat uchun bashorat qilib bo'lmas talofatlar bilan aks etmoqda.

Yuqoridagi muammolar ketma-ketligi sabab, 2016-yilda janubiy Sudanda rasman e'lon qilingan oziq-ovqat inqirozi<sup>1</sup> yillar o'tib ko'lami kengayib, bugunga kelib bunday mamlakatlar soni 20 dan oshgani tizimni tahlika ostida qolganidan darak bermoqda.

Shu munosabat bilan, oziq-ovqat inqirozini tizimli tahlil qilish, uning sabablari va oqibatlarini chuqur o'rganish, shuningdek, inqirozni yumshatishga qaratilgan aniq, ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish bugungi kunda global va milliy darajada ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur maqola aynan shu ehtiyojga javoban ishlab chiqilgan bo'lib, oziq-ovqat tanqisligining murakkab sabablari, mavjud xavflar va ularni yumshatish bo'yicha amaliy choralarni o'rganishga qaratilgan.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

So'nggi yillarda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi xalqaro miqyosda ilmiy hamjamiyat e'tiborida markaziy o'ringa chiqdi. ScienceDirect va Springer Nature bazalarida e'lon qilingan so'nggi ilmiy maqolalar oziq-ovqat inqirozining ko'p omilli va tizimli tusga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Bu inqiroz nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari yetishmovchiligi, balki ularning narxlarining beqarorligi, iqlim sharoitlarining keskin o'zgarishi, siyosiy beqarorlik va iqtisodiy muvozanatsizliklar bilan bevosita bog'liqdir.

Soha doirasida olib borilgan tahlillarda ta'kidlanishicha, global oziq-ovqat tizimining zaifligi birinchi navbatda ushbu tizimning sanoatga yo'naltirilganligi va ekologik barqarorlikning yetishmasligi bilan izohlanadi<sup>2</sup>. Bu holat qishloq xo'jaligi resurslarining noto'g'ri boshqarilishi, monokulturaga asoslangan yetishtirish uslublari va kichik fermerlarning zaif iqtisodiy holati bilan yanada chuqurlashadi. Ayniqsa, pandemiya davrida logistika zanjirlarining izdan chiqishi oziq-ovqat ta'minoti va narxlar barqarorligiga kuchli zarba bergani ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan<sup>3</sup>.

Mazkur soha tadqiqotchilari nashrlarida e'lon qilingan maqolalar esa global iqlim o'zgarishlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini keng yoritadi. Jumladan, Janubiy Osiyo,

<sup>1</sup> FAO, South Sudan, Situation report - 24 October 2016. <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/dc790c6a-4c68-4b88-b364-8cce14a4f85d/content>

<sup>2</sup> T.Garnett va b. SCIENCE VOL 341 5 JULY 2013 <https://doi.org/10.1126/science.1234485>

<sup>3</sup> Béné, C., Bakker, D., Chavarro, Mó.Juliana., Even, B., Melo, J., Sonneveld,

A., Global assessment of the impacts of COVID-19 on food security, Global Food Security (2021), doi: <https://doi.org/10.1016/j.gfs.2021.100575>.

Afrika va Lotin Amerikasi mintaqalarida kuzatilayotgan qurg‘oqchilik, sel, va harorat keskinliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va sifati keskin pasayishiga olib kelmoqda<sup>4</sup>. Ayniqsa, hosildorlikni pasaytiruvchi zararkunandalar va kasalliklarning iqlim bilan chambarchas bog‘liq holda tarqalayotgani ilmiy jihatdan asoslab berilgan<sup>5</sup>. Shuningdek, oziq-ovqat inqirozi ijtimoiy tengsizlik va sog‘liqni saqlash muammolari bilan ham bevosita bog‘liq ekani ta‘kidlangan.

Oziq-ovqat inqirozining oldini olish va yumshatish uchun ko‘plab maqolalarda kompleks yondashuvlar – jumladan, davlat siyosatini barqarorlashtirish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish, shuningdek, kichik dehqon xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash taklif etilgan<sup>6</sup>. Umuman olganda, ilmiy manbalar oziq-ovqat xavfsizligi masalasini hal qilishda sektorial emas, balki tizimli va ko‘p qatlamli yondashuvni zarur deb hisoblaydi. Oziq-ovqat tizimlarini yanada barqaror, adolatli va ekologik muvozanatli shakllantirish uchun xalqaro miqyosdagi hamkorlik va uzoq muddatli investitsiyalar muhim omil sifatida e‘tirof etiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotda oziq-ovqat inqirozining sabablari, oqibatlarini va uni yumshatish yo‘llarini tahlil qilish maqsadida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, adabiyotlar tahlili, tahliliy metod, taqqoslama tahlil metodi, tavsiyaviy metod, sistemali yondashuv kabilardan foydalanilgan. Ular asosida quyidagilar o‘rganildi: tadqiqot doirasida oziq-ovqat xavfsizligi, global ochlik, iqtisodiy va ekologik omillar bilan bog‘liq ilgari o‘rganilgan ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar (FAO, GRFC va boshqalar) hisobotlari, shuningdek, soha mutaxassislarining ilmiy xulosalari o‘rganildi; yig‘ilgan statistik ma‘lumotlar asosida oziq-ovqat inqiroziga sabab bo‘luvchi omillar – urushlar, iqlim o‘zgarishi, inflyatsiya, resurs tanqisligi va iqtisodiy shoklar – alohida ko‘rib chiqildi. 2021–2024 yillar oralig‘ida oziq-ovqat narxlari va ochlik darajasidagi dinamik o‘zgarishlar tahlil qilindi; turli davrlarda va mintaqalarda yuzaga kelgan oziq-ovqat tanqisligi holatlari solishtirib tahlil qilindi. Ayniqsa, 2016–2023 yillar oralig‘ida ochlik holatidagi aholi ulushi, mintaqaviy farqlar va xavf zonalarini o‘rtasidagi tafovutlar aniqlashtirildi; tadqiqot yakunida aniqlangan muammolar asosida oziq-ovqat inqirozini yumshatishga qaratilgan aniq amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Bunga sug‘orish tizimlarini tiklash, urug‘lik va o‘g‘itlarni yetkazib berish, kooperativlarni tashkil etish, saqlash va logistika tizimini yaxshilash hamda investitsiyalardan samarali foydalanish kabi yo‘nalishlar kiradi; oziq-ovqat inqirozi murakkab va ko‘p omilli muammo bo‘lganligi sababli, ushbu tadqiqotda tizimli tahlil yondashuvi qo‘llandi. Iqlim, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqilib, ularning oziq-ovqat tizimiga bo‘lgan umumiy ta‘sirini aniqlab berildi.

### **Tahlil va natijalar**

Global oziq-ovqat inqirozi bugungi kunda insoniyat salomatligi, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Tadqiqot davomida xalqaro tashkilotlar (FAO, GRFC, WFP) hisobotlari, statistik ko‘rsatkichlar hamda ilmiy manbalar asosida oziq-ovqat tanqisligining asosiy sabablari, ta‘sir doirasi va oqibatlarini tizimli ravishda tahlil qilindi.

<sup>4</sup> Wheeler, T., & von Braun, J. (2013). Climate change impacts on global food security. *Science*, 341(6145), 508–513.

<https://doi.org/10.1126/science.1239402>

<sup>5</sup> Thornton, P. K., Ericksen, P. J., Herrero, M., & Challinor, A. J. (2014). Climate variability and vulnerability to climate change: A review. *Global Change Biology*, 20(11), 3313–3328. <https://doi.org/10.1111/gcb.12581>

<sup>6</sup> Springmann, M., Clark, M., Mason-D’Croz, D., Wiebe, K., Bodirsky, B. L., Lassaletta, L., & Willett, W. (2018). Options for keeping the food system within environmental limits. *Nature*, 562(7728), 519–525. <https://doi.org/10.1038/s41586-018-0594-0>

So‘nggi yillarda global oziq-ovqat mahsulotlari narxlari keskin oshdi. FAOning oziq-ovqat narxlari indeksi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda narxlar o‘rtacha 23 foizga ko‘tarilgan bo‘lib, bu 10 yillik narx barqarorligini izdan chiqardi. Narxlarning bu darajada o‘shishi Ukraina–Rossiya urushi, energiya narxlarining oshishi va global logistika muammolari bilan bog‘liq bo‘ldi.

Yuqori inflyatsiya ko‘plab past daromadli mamlakatlarda aholining xarid qobiliyatini pasaytirdi. Xususan, yoqilg‘i, o‘g‘itlar va transport xarajatlari oshgani tufayli ishlab chiqarish tannarxi ko‘paydi va bu bevosita oziq-ovqat tanqisligini kuchaytirdi.


Iqlim o‘zgarishlari – qurg‘oqchilik, toshqinlar, o‘rmon yong‘inlari, tuproq degradatsiyasi – global oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimlariga jiddiy zarba bermoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ayniqsa Afrika va Osiyo mintaqalarida ob-havo bilan bog‘liq ofatlar, zararkunandalar<sup>7</sup> hosildorlikka sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. FAO ma‘lumotiga ko‘ra, 2023-yilda faqatgina iqlim omillari sababli 45 milliondan ortiq kishi oziq-ovqat yordamiga muhtoj bo‘lgan.

Iqlimga oid fojealar chorvachilik va sug‘oriladigan dehqonchilikka zarar yetkazib, butun qishloq xo‘jalik zanjirini izdan chiqarmoqda. Qurolli urushlar oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita tahdid solmoqda. GRFC 2024 hisobotiga ko‘ra, ochlikka duch kelayotgan 295 million kishining 70 foizdan ortig‘i aynan mojaroli hududlarda yashaydi. Ukraina, Sudan, G‘azo, Efiopiya, Sahel zonasi kabi hududlarda urushlar qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining vayron bo‘lishiga, aholini ko‘chishga va oziq-ovqat ta‘minotining to‘xtashiga olib keldi. Bunday hududlarda insonparvarlik yordamiga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshmoqda, ammo xavfsizlik tahdidlari sababli bu yordam ham ko‘plab joylarda yetkazilmayapti.

Oziq-ovqat tanqisligi ijtimoiy beqarorlikka ham olib kelmoqda. Resurslar tanqisligi, narxlar oshishi va hayot sharoitlarining og‘irlashuvi sababli millionlab insonlar yashash hududlarini tark etishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa yangi ijtimoiy bosimlar va migratsiya inqirozlariga yo‘l ochmoqda. O‘z navbatida, migratsiya ham oziq-ovqat taqsimotidagi nomutanosiblikni kuchaytiradi.

Xalqaro tashkilotlardan FAO va IPC (Integrated Food Security Phase Classification) ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyodagi 53 mamlakatda o‘tkir ochlik holatlari qayd etilgan. Shundan ayrimlarida (masalan, G‘azo, Sudan, Somali) ochlik beshinchi – “katta falokat” (ochlikning 5-fazasi) darajasiga yetgan.

Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki oziq-ovqat inqirozi yakka bir mamlakat yoki mintaqaga xos muammo emas, balki global miqyosdagi murakkab tizimli inqiroz ekanligini anglatib; oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun siyosiy barqarorlik, ekologik muvozanat va iqtisodiy islohotlar o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda olib borilishi zarurligini; investitsiyalarning yetarli darajada va maqsadli yo‘naltirilishi, resurslardan samarali foydalanish, logistika tizimini tiklash va iqlimga mos innovatsion texnologiyalarni joriy etish – muhim strategik yo‘nalishlar sifatida tan olinishini talab etmoqda.



**1-rasm. 2016-2024 yillarda yuqori darajadagi o‘tkir oziq-ovqat xavfsizligiga duch kelgan GRFC mamlakatlari/hududlarida odamlar soni va tahlil qilingan aholi ulushi<sup>8</sup>**

1-rasmda 2016-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda dunyodagi yuqori xavfli oziq-ovqat inqiroziga duch kelgan mamlakatlar yoki hududlardagi aholining soni va ulushi yillar kesimida aks ettirilgan. Grafikda ochlikka duch kelgan aholining mutlaq soni o‘tib borayotgani aniq ko‘rinadi. Jumladan, 2023-yilda ushbu son 295 million kishiga yetgani va bu ko‘rsatkich 2016-yildagidan ancha yuqoriligi qayd etilgan.


Yana bir muhim jihat shundaki, o‘tkir oziq-ovqat xavfsizligiga duch kelgan aholi ulushi 22% atrofida doimiy saqlanib qolmoqda, bu esa COVID-19 pandemiyasi va urushlar keltirib chiqargan inqirozlarning uzoq muddatli ta‘sirini ko‘rsatadi. Ushbu holat oziq-ovqat inqirozi — faqat favqulodda holat emas, balki barqaror va tizimli muammoga aylanganini anglatadi. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, xalqaro hamjamiyatning sa‘y-harakatlariga qaramay, oziq-ovqat inqirozidan aziyat chekayotgan aholining soni kamaymagan, balki yildan-yilga ortib bormoqda. Bu holat global tizimda jiddiy tarkibiy islohotlarni talab etadi.

Oziq-ovqat inqirozi ochlikning darajasi hamda to‘yib ovqatlanmaslik tez suratlarda mahalliy, milliy va global miqyosda sodir bo‘lganda vujudga keladi. shuningdek, oziq-ovqat inqirozi deyilganda, mahalliy resurs va imkoniyatlar yetishmasligini yengib o‘tish uchun oziq-ovqat havfsizligining keskin mavjud emasligi tushiniladi.

O‘z navbatida FAO mutaxassisleri ochlikni besh daraja(faza)ga ajratib ko‘rsatishadi, bular: 1) minimal ochlik; 2) sezilarli ochlik; 3) keckin ochlik; 4) favqulotda ochlik; 5) halokatga yetaklovchi ochlik<sup>9</sup>. Hozirgi kunda ochlikning barcha darajalari mamlakatlarning geo-siyosiy, iqtisodiy holatidan kelib chiqib turli darajada namoyon bo‘lmoqda. quyida keltiriladigan rasm ma‘lumotlaridan foydalanib, kichik tahlilni amalga oshirish mumkin.

<sup>8</sup> Global Report on Food Crises (GRFC) 2025. 20-bet, <https://www.fsinplatform.org/sites/default/files/resources/files/GRFC2025-full.pdf>

<sup>9</sup> FAO. Global Report on Food Crises, 24/04/2024. <https://www.fao.org/newsroom/detail/global-report-on-food-crises---acute-hunger-remains-persistently-high-in-59-countries-with-1-in-5-people-assessed-in-need-of-critical-urgent-action/ru>



**2-rasm. Ochlikning 5-fazasida turgan aholi soni (IPC/CH Phase 5)<sup>10</sup>**

2-rasmda IPC (Integrated Food Security Phase Classification) tizimining eng yuqori darajasi – 5-faza (katta falokat yoki halokat yoqasida) holatidagi ochlikdan aziyat chekayotgan aholining statistik ko'rsatkichi berilgan. 5-faza<sup>11</sup> – bu oziq-ovqat xavfsizligining eng og'ir bosqichi bo'lib, odamlar o'lim xavfi ostida qolgan, favqulodda yordamga muhtoj bo'lgan holatni anglatadi.

Rasmda bir necha davlatlar (masalan, G'azo, Sudan, Somali, Burkina-Faso, Mali, Janubiy Sudan) bo'yicha ushbu xavfli holatda bo'lgan aholi soni aks ettirilgan. Ayrim hududlarda bu ko'rsatkich millionlab insonlarni tashkil etadi. Bu esa, insoniyat taraqqiyoti yuksak bosqichda bo'lishiga qaramay, ayrim mintaqalarda ochlik hayot uchun real xavfga aylangan.

Bu ma'lumotlar ko'rsatadiki, oziq-ovqat inqirozi faqat iqtisodiy qiyinchilik emas, balki bevosita gumanitar falokatga olib keladigan darajadagi muammoga aylangan. Shu bois, 5-fazada bo'lgan hududlarda nafaqat oziq-ovqat yordamini, balki uzoq muddatli infratuzilma, qishloq xo'jaligi tiklash va siyosiy barqarorlikni ta'minlash choralarini birgalikda ko'rish zarur.

### **Xulosa va takliflar**

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, oziq-ovqat inqirozi global miqyosda ko'p omilli va murakkab tusga ega bo'lib, uni bartaraf etish uchun faqat alohida sektor yoki mintaqaviy choralar emas, balki tizimli va kompleks yondashuv zarurdir. Inqirozni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar – iqlim o'zgarishi, qurolli mojarolar, iqtisodiy shoklar va resurslar boshqaruvidagi nomuvofiqliklar bir-biri bilan uzviy bog'langan va o'zaro kuchaytiruvchi ta'sirga ega. Statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Oziq-ovqat xavfsizligi faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki ishlab chiqarilgan mahsulotlarning saqlanishi, taqsimlanishi va aholiga yetkazilishi bilan ham chambarchas bog'liq.

<sup>10</sup> Global Report on Food Crises (GRFC) 2025. 21-bet, <https://www.fsinplatform.org/sites/default/files/resources/files/GRFC2025-full.pdf>

<sup>11</sup> FAO. Global Report on Food Crises, 24/04/2024. <https://www.fao.org/newsroom/detail/global-report-on-food-crises---acute-hunger-remains-persistently-high-in-59-countries-with-1-in-5-people-assessed-in-need-of-critical-urgent-action/ru>

- Resurslardan samarasiz foydalanish, xususan suv va yer zaxiralari boshqaruvidagi muammolar, hosildorlikka bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

- Iqlimga chidamli va barqaror qishloq xo'jaligi tizimlarini yaratmasdan turib, oziq-ovqat tanqisligini uzoq muddatli hal qilish imkonsiz.

- Kambag'allik va oziqlanish muvozanatsizligi o'rtasidagi bog'liqlik, ayniqsa zaif guruhlar uchun sog'liq va rivojlanishga tahdid solmoqda.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda, quyidagi ilmiy asoslangan va amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

- Iqlim o'zgarishlariga qarshi bardoshli urug'liklar, suvni tejaydigan sug'orish tizimlari va agrotexnologiyalarni joriy etish orqali hosildorlikni barqarorlashtirish mumkin. Bu bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish muhim.

- Logistika, saqlash va tarqatish tizimlarining zamonaviylashtirilishi oziq-ovqat mahsulotlarining yo'qotilishini kamaytiradi va aholining sifatli oziq-ovqatga kirishini yaxshilaydi. Xususan, qishloq hududlarida omborxonalar va sovitish tizimlariga investitsiyalar zarur.

- Mayda dehqonlarni moliyaviy, texnik va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash ularning ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Kooperativlar shakllantirish va umumiy resurslardan foydalanishni yo'lga qo'yish samaradorlikni kuchaytiradi.

- Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi yo'nalishlariga ajratilayotgan investitsiyalarni maqsadli va samarali boshqarish uchun aniq indikatorlar va monitoring tizimlari ishlab chiqilishi lozim. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari bu borada muhim rol o'ynashi mumkin.

- Zaif va ehtiyojmand guruhlar uchun oziq-ovqat yordam dasturlarini kengaytirish, ayniqsa bolalar va ayollar salomatligini saqlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, oziqlanish bo'yicha sog'lom ovqatlanish madaniyatini targ'ib qilish kerak.

- GRFC, FAO va boshqa xalqaro tuzilmalarning ma'lumotlaridan foydalangan holda, milliy erta ogohlantirish tizimlarini yaratish oziq-ovqat tanqisligini oldindan aniqlash va tezkor choralar ko'rishga imkon beradi.

Yuqoridagi takliflar amalga oshirilsa, qisqa muddatda oziq-ovqat inqirozining salbiy oqibatlarini yumshatish, uzoq muddatda esa barqaror oziq-ovqat tizimlarini yaratish uchun zamin yaratiladi. Shu bois, maqsadli yo'naltirilgan investitsiyalar, xalqaro hamkorlik, diplomatiya, ilmiy yondashuv va tizimli islohotlar asosida milliy siyosatni shakllantirish zarur hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Global Report on Food Crises (GRFC) 2025., <https://www.fsinplatform.org/sites/default/files/resources/files/GRFC2025-full.pdf>

2. FAO. (2024). Global Report on Food Crises 2024: Joint analysis for better decisions. Food Security Information Network. <https://www.fsinplatform.org/global-report-food-crises-2024>

3. HLPE (High Level Panel of Experts on Food Security and Nutrition). (2020). Food security and nutrition: Building a global narrative towards 2030. Committee on World Food Security. <http://www.fao.org/3/ca9731en/ca9731en.pdf>

4. World Bank. (2023). Food Security Update – September 2023. <https://www.worldbank.org/en/topic/agriculture/publication/food-security-update>

5. Béné, C., Bakker, D., Chavarro, M. J., Even, B., Melo, J., & Sonneveld, A. (2021). Global assessment of the impacts of COVID-19 on food security. *Global Food Security*, 31, 100575. <https://doi.org/10.1016/j.gfs.2021.100575>
6. Cressman, K. (2013). Climate change and locusts in the WANA region. In M. V. K. Sivakumar, R. Lal, R. Selvaraju, & I. Hamdan (Eds.), *Climate change and land use in the WANA region with a specific reference to Morocco* (pp. 131–143). Springer. [https://doi.org/10.1007/978-94-007-6751-5\\_7](https://doi.org/10.1007/978-94-007-6751-5_7)
7. Fanzo, J., Haddad, L., McLaren, R., & Marshall, Q. (2020). The food systems dashboard is a new tool to inform better food policy. *Nature Food*, 1(5), 243–246. <https://doi.org/10.1038/s43016-020-0077-y>
8. Garnett, T., Appleby, M. C., Balmford, A., Bateman, I. J., Benton, T. G., Bloomer, P., & Godfray, H. C. J. (2013). Sustainable intensification in agriculture: Premises and policies. *Science*, 341(6141), 33–34. <https://doi.org/10.1126/science.1234485>
9. Springmann, M., Clark, M., Mason-D’Croz, D., Wiebe, K., Bodirsky, B. L., Lassaletta, L., ... & Willett, W. (2018). Options for keeping the food system within environmental limits. *Nature*, 562(7728), 519–525. <https://doi.org/10.1038/s41586-018-0594-0>
10. Thornton, P. K., Ericksen, P. J., Herrero, M., & Challinor, A. J. (2014). Climate variability and vulnerability to climate change: A review. *Global Change Biology*, 20(11), 3313–3328. <https://doi.org/10.1111/gcb.12581>
11. Vermeulen, S. J., Campbell, B. M., & Ingram, J. S. I. (2012). Climate change and food systems. *Annual Review of Environment and Resources*, 37, 195–222. <https://doi.org/10.1146/annurev-environ-020411-130608>
12. Wheeler, T., & von Braun, J. (2013). Climate change impacts on global food security. *Science*, 341(6145), 508–513. <https://doi.org/10.1126/science.1239402>